

“AL-MUFASSAL FIN NAHV” ASARIDA QUR’ONI KARIM VA HADISI SHARFNING TUTGAN O’RNI

G’aniyev Akmaljon Adxamjon o’g’li

Hadis ilmi maktabi “Islom ilmlari” kafedrasasi mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmud Zamaxshariy o’zining “al-Mufassal fin nahv” asarida Qur’oni karim oyatlaridan qay yo’sinda, uslubda foydalangani, hadisi shariflarga bo’lgan munosabatda boshqalardan farqli jihatlari ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: Mufassal, Qur’oni karim, hadis, dalil, oyat, lingvestika, tilshunoslik, nahv, sarf, tafsir.

Mahmud Zamaxshariy o’z kitobini yozishda turli xil manbalardan foydalangan. Kitobda keltirayotgan qoidalarni izohlash va sharhlashda faqat dalilarga asoslanib yoritib bergan. Har bir qoidani imkon qadar Qur’oni karim, hadisi sharif, arab she’rlari va nasrlari hamda o’zidan oldingi arab tili olimlarining qarashlaridan iborat dalillar bilan asoslab bergan. Iboralarni muxtasar holatda keltirib, dalillar zikrigagina to’xtalgan. Bu “al-Mufassal”gagina xos bo’lib, juda foidali va o’quvchini zehni boshqa narsalarga chalg’itmaydigan uslub hisoblanadi. Keltirayotgan dalillarni o’quvchiga qiyinchilik tug’dirmaydigan, oson va tushunarli uslubda tartiblagan.

Shu o’rinda Mahmud Zamaxshariy mavzularni bayon qilishda qaysi asarlardan foydalanganiga to’xtalib o’tsak. Zamaxshariy o’z asarida quyidagi manbalardan foydalanganiga guvoh bo’lamiz:

Qur’oni karim. Arab tili fan sifatida shakllanib, ulamolar tomonidan qoidalari ishlab chiqilishi boshlanganidan beri har bir olim hujjat keltirishda, har qanday o’zgarishlardan xoli va arab tili ning go’zal namunasi bo’lmish Qur’oni karimga suyanadi. Biror-bir nahvshunos olimning kitobi Qur’oni karim oyatlaridan xoli emas. Olimlar Qur’oni karimni qattiq o’rganishgan, har bir oyat har bir so’zini tahlil qilib, qaysi oyat qaysi masalaga hujjat bo’lishini tahqiq qilishgan. Shuning uchun ham olimlarni Qur’oni karim oyatlarida keng foydalanganiga guvoh bo’lamiz. Masalan, Sibavayh o’zining “Kitob”ida 400 ta oyati karimani qoidalarga dalil sifatida keltirgan. Undan keyin kelgan ulamolar ham u kishiga ergashgan va o’z qarashlarini quvvatlash maqsadida oyati karimalardan dalillar keltrigan. Mahmud Zamaxshariy ham o’zidan oldingi Basra ulamolari yo’lini tutib, qoidalarni ishlab chiqishda va ularni to’g’riligini isbotlashda Qur’on karim oyatlaridan foydalangan. Olimning Qur’oni karimni o’rganishga qattiq e’tibor bergani va chuqur o’rganganiga yorqin misol bu uning “al-Kashshof” asaridir. Olim bu asarda Qur’oni karimning lafzlari, ma’nolari, tarkiblari va qiroatlarini chuqur tahlil qilgan va go’zal tarzda bayon qilgan. “Al-Mufassal” kitobi ham oyatlardan dalillar, misollar keltirishga alohida e’tibor berilgan kitoblardan biri

hisoblanadi. Unda jami 86 ta suradan 350 dan ortiq oyati karima dalil o'laroq keltirilgan. Bu asarda Mahmud Zamaxshariy Qur'oni karim oyatlaridan juda ko'p marotaba turli xil masalalarda, hamda turli ko'rinishlarda foydalanganiga guvoh bo'lamiz. Til qoidalarini quvvatlashda ba'zan faqat oyati karimani keltirgan bo'lsa, ba'zan esa, arablarni she'rlaridan keltirib, u bilan kifoyalanmay Qur'oni karim oyatidan ham foydalangan. Gohida esa, o'zidan oldingi Basra olimlarining fikrlariga ergashib, ularning kitobidan keltirib, uning ham to'g'ri ekanligiga oyati karimalardan dalillar keltirgan.

Shu o'rinda bir necha misollarni ko'rib chiqsak:

1- المدح و الذم (olqish va qarg'ishni ifodalovchi fe'llar) bobida zam (yomonlash, qarg'ish) kalimasi bo'lmish بساء ni o'rniga ساء ni qo'llash mumkin deyilar va bunga dalil sifatida A'rof surasining 177-oyatini dalil qilib keltiradi:

سَاءَ مَثَلًا الْقَوْمَ الَّذِينَ كَذَّبُوا بِآيَاتِنَا وَأَنْفُسَهُمْ كَانُوا يَظْلِمُونَ

“Oyatlarimizni yolg'onga chiqarganlarning misoli naqadar yomon bo'ldi, ular o'zlariga zulm qilishdi. (A'rof surasi 177-oyat)¹

Ushbu oyatda Alloh taolo ساء kalimasini بساء – “naqadar yomon bo'ldi” ma'nosida ishlatdi.

2- ظل و بات ning sheriklarini bayonida kan ning sheriklarini bayonida ظل و بات kalimalarinig ikkita manosi bor deydi. Ulardan biri ikkisi ham o'ziga xos vaqt ma'nosini ifodalaydi. Ikkinchi manosi esa صار ma'nosida ham qo'llanishi haqida bahs qilib, quyidagi oyati karimani dalil sifatida keltiradi:

وَإِذَا بُشِّرَ أَحَدُهُم بِالْأُنثَىٰ ظَلَّ وَجْهُهُ مُسْوَدًّا وَهُوَ كَظِيمٌ

“Qay birlariga qizning xushxabari berilsa, g'azabidan yuzlari qorayib ketadi.” (Nahl surasi, 58-oyat)²

Ushbu oyati karimada ظل kalimasini Alloh taolo صار – “bo'ladi, aylanadi, ..ib ketadi” ma'nosida ishlatdi.

3- Ba'zi masalalarni dalillashda bir necha Qur'on oyatlaridan keltiradi. Masalan, Tamyiyz (cheklov)³ bahsida uning nasb bo'lishi haqida gapirib quyidagi oyati karimalarni dalil sifatida keltirib o'tadi:

وَاشْتَعَلَ الرَّأْسُ شَيْبًا

“Keksalikda boshga oq tushdi...” (Maryam surasi, 4-oyat)⁴

وَفَجَّرْنَا الْأَرْضَ عُيُونًا

¹ Shayx Usmonxon Temrxon o'gli Samarqandiy. Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimasini. – Anqara.: Turkiya diyonat vaqfi, 2021. – B. 172.

² Shayx Usmonxon Temrxon o'gli Samarqandiy. Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimasini. – Anqara.: Turkiya diyonat vaqfi, 2021. – B. 272.

³ Nosirova M. Mahmud Zamaxshariyning “Al-Unmuzaj fi-n-nahv” risolasi. – T.: ToshDShU nashriyoti, 2005. – B. 81.

⁴ Shayx Usmonxon Temrxon o'gli Samarqandiy. Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimasini. – Anqara.: Turkiya diyonat vaqfi, 2021. – B. 304.

“Va yerdan buloqlarni otiltirib chiqardik...” (Qamar surasi, 12-oyat)⁵
وَمَنْ أَحْسَنُ قَوْلًا

“...Go‘zal so‘zlovchi bormi” (Fussilat surasi, 33-oyat)⁶

Yuqoridagi misollardan oyatlardan foydalanish uslubini o‘rganib chiqadigan bo‘lsak, musannif ulardan doimo bir xil tarzda foydalanmagan. Kerak bo‘lganda oyati karimaning hammasini keltrisa, ba‘zan uning faqat dalil bo‘ladigan qismiga cheklangan. Ko‘pincha bitta oyati karimadan foydalangan bo‘lsa, ba‘zan yuqoridagidek, 3 ta yoki undan ko‘p oyatlarni ham keltirgan.

Bunga kitobdan juda ko‘p misollar keltirishimiz mumkin. Olim “Al-Mufassal”da jami 94 ta o‘rinda 350 dan ortiq Qur’oni karim oyatlaridan dalillar keltirgan. Bu oyati karimalar jami 86 ta suraning oyatlari hisoblanadi.

Hadisi sharif. Islom dininig ikkinchi asosiy manbasi bu Payg‘ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi vasallamning hadisi shariflaridir. Chunki u zot havodan gapirmaganlar, balki u zotning gapirgan gaplari Alloh taolo tomonidan u kishiga yuborilgan vahiydir. Shuning uchun ham ulamolar dinimiz hukmlarini o‘rganish va o‘rgatishda Qur’oni karim hamda hadisi sharifga murojaat qilganlar. Dastavval, nahv olimlari din olimlari yo‘lidan yurmadilar. Xususan, Basra va Kufa olimlari ham hadisi shariflardan o‘zlari bayon qilayotgan qoidalarni asoslashda dalil o‘laroq foydalanishmadi. Bunga juda ko‘plab sabablarni keltirishdi. Shu o‘rinda ulardan ikki asosiy sababni keltirib o‘tsak:

- Hadis ilmi olimlari bo‘lmish muhaddislar hadisi shariflarni rivoyat qilish lafziga cheklanmay, balki ma‘nosi bilan ham rivoyat qilishi mumkin (o‘ziga xos shartlari mavjud). Chunki shariatning hukmlari ma‘nolarga bo‘g‘liq, deb aytganlar.

- Hadis rivoyati bilan shug‘ullanganlarning aksari arab bo‘lmaganlar. Shuning uchun hadislarni rivoyat qilishda, ayrim holatlarda o‘zlari xohlamagan holda xatoga yo‘l qo‘yish ehtimoli mavjudligini sabab qilib ko‘rsatishgan.

Arab tili qoidalari arab kalimalariga va kalomlariga tegishli va uning bevosita tahlili bo‘lgani uchun, yuqoridagi har ikki holatda ham roviy tomonidan qilingan nuqsonlar uchrashi mumkin va bu narsa hadis sharifga ta’sir o‘tkazib, uning arab tili qoidalarga to‘laqonli mos kelish doirasidan chiqarib yuboradi, degan qarashda bo‘lgan. Lekin bu nuqson garchi hadisda kelayotgan bo‘lsada, uni rivoyat qiluvchi roviy tomonidan sodir bo‘lgani uchun roviyninig o‘ziga nisbat beriladi. Bu holat to hijriy VI-VII asrlargacha davom etdi. Bu asrlarda esa qoidalarni asoslashda yana bir dalilga ehtiyoj tug‘ila boshladi. Natijada ulamolar asoslashda hadisi shariflarga ham bevosita murojaat qila boshladilar. Taniqli Germaniyalik sharqshunos olim Yuhan Fuk (Johann Fuck) ning fikricha, arab tili qoidalarida birinchi bo‘lib hadislarni dalil qilib

⁵ O‘sha asar. – B. 528.

⁶ O‘sha asar. – B. 479.

olgan shaxs Abul Hasan Andalusiy bo‘lgan. U kishi “Ibn Xaruf” nomi bilan mashhur bo‘lgan. U kishining Sibavayhning “Kitob”iga va Abul Hasan Ali ibn Muhammad ibn Hadramiyning “Al-Jumal” kitobiga yozgan sharhlarida ko‘plab hadislardan foydalangan.⁷

Bu sinf ulamolari hadislardan dalil o‘laroq foydalanish joiz deb hisoblamaydigan olimlarning birinchi dalili bo‘lmish-hadislarni ma‘nolari bilan rivoyat qilish, roviy tomonidan o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi va natijada bu narsa ularning qoidaga mosliligaga ta‘sir qiladi, degan qarashlariga javob tariqasida quyidagilarni keltirib o‘tishadi. Hadislarni ma‘nosini rivoyat qilish uning tuzilishining to‘g‘riligiga ta‘sir ko‘rsatmaydi. Chunki hadislar ikki qismga bo‘linadi:

1- Kitoblarga yozib qoldirilgan ko‘plab hadislar ajamlar musulmon bo‘lib, arablar bilan aralashib, tilda o‘zgarishlar va xatolar paydo bo‘lishidan oldin yozib olingan. Hadislar Umar ibn Abdulaziz zamonida yozilgan, ungacha esa faqat yoddan rivoyat qilingan, degan xato tushuncha keng tarqalgan. Bu albatta xato tushuncha bo‘lib, hadislar Payg‘ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vasallam davrlarida ham ayrim sahobalar tomonidan yozib olingan. Eng ko‘p hadis rivoyat qilingan sahoba Abu Hurayra roziyallohu anhu sahobalar ichida o‘zlarini eng ko‘p hadis biluvchi deb hisoblab, bundan faqat Abdulloh ibn Amr roziyallohu anhu mustasno qilgan va bunga u kishining hadislarini yozib olishini sabab qilib keltirgan. Shundan ma‘lum bo‘ladiki, buyuk faqih sahobalardan biri bo‘lmish Abdulloh ibn Amr ibn Os roziyallohu anhu hadislarini yozib olgan. U kishi Rasululloh sallollohu alayhi vasallamdan eshitganlari bir sahifaga jamlab, uni “As-Sodiq” deb nomlagan. Tobeinlardan ham hadislarini yozib oladiganlari bo‘lgan. Masalan Humom Ibn Munabbih Abu Hurayra roziyallohu anhudan eshitganlarni sahifalarga jamlab, uni “As-Sahifa” deb nomlagan.⁸ Demak, hadislarining hammasi ham yodda saqlanib keyingi avlodga yetib bormagan. Balki ular kitoblar va sahifalar ko‘rinishida ham saqlangan va shu holatda keyingi avlodga yetkazilgan.

2- Yozib olinmagan hadislar – yuqoridagi ma‘nosi bilan rivoyat qilingan, lafzi roviyniki bo‘lgan, degan ehtimol shu turdagi hadislarda uchrashi mumkin. Lekin bu ehtimol ham hadislariga o‘z ta‘sirini o‘tkazmaydi. Chunki rivoyat qilish bilan shug‘ullanuvchi muhaddislar hadis rivoyat qilishga va ularni saralashga doir qattiq shartlarni qo‘yishgan. Ayniqsa, ma‘nosini rivoyat qilishga doir qo‘yilgan shartlar ularni bunaqangi nuqson va o‘zgartirishlardan saqlaydi. Ma‘nosi bilan rivoyat qilganlar muhaddislar ham katta olim, arab tili ni mukammal biluvchi bu ilmlar bilan umri davomida shug‘ullangan, ularning olim ekanligiga ummat ittifoq qilgan

⁷ Kamol Jibriy Abhuriy. Az-Zamaxshariy, siyratuhu-asaruhu-mazhabuhu-n-nahviy. – Ummon.: Dorul janon, 2014. – B. 236.

⁸ Kamol Jibriy Abhuriy. Az-Zamaxshariy, siyratuhu-asaruhu-mazhabuhu-n-nahviy. – Ummon.: Dorul janon, 2014. – B. 237.

mujtahidlar hisoblanadi. Ulardan esa qoidalarga rioya qilmaslik topilishi mumkin emas.

Hadislarni rivoyati bilan ko‘plab arab bo‘lmaganlar shaxslar shug‘ullangan ulardan esa naql qilishda xatoliklar ucharshi mumkin, degan ehtimolga kelsak, shu gapni gapirib, arab she‘rlari va nasrlarini dalil sifatida keltiradiganlarga qarata aytamizki, sizlar dalil qilayotgan she‘r va nasrlarni ham rivoyatchilaridan ko‘pi arab bo‘lmagan ajamlardir. Shunday bo‘lsada sizlar ularning she‘rlari naql qilinishiga e‘tiroz bildirmaysizlarku? Ularga yana bir qancha dalillar keltirib o‘tishimiz mumkin, lekin bahs juda uzayib ketadi. Shuning uchun bu o‘rinda yuqoridagilar bilan cheklanamiz.

Albatta, Mahmud Zamaxshariy ham bu sinf olimlarining ichida peshqadamlaridan biri bo‘lgan. Payg‘ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi vasallamning hadislarni qoidalarning dalili o‘laroq keltirgan va bu ishi bilan o‘zidan oldingi hadisi sharifni hujjat-dalil qilib keltirish joiz emas, degan fikrdagi nahv olimlariga xilof qilgan. Ayrim joylarda hadisi sharifning aynan lafzi bilan emas, ma‘nosi bilan rivoyat qilgan. Mahmud Zamaxshariy ko‘plab asarlarida, xususan, biz o‘rganayotgan “Al-Mufassal”da hadislardan ko‘p marotaba foydalangan. Bu bilan o‘ziga asrdosh bo‘lgan olimlarga nahvga va arab tili ga oid kitoblarni yozishda hadislarning ilmiy qiymati qanchalik katta ekanlini ko‘rsatib bergan. Yuqorida ismi zikr qilingan Ibn Xaruf va u kishidan keyin kelgan ulamolar, ayniqsa, Ibn Molik va Ibn Hishomlar kabi ulamolar hadislardan keng ko‘lamda foydalanganlar.

Mahmud Zamaxshariy “al-Mufassal”da jami 17 hadisni keltirgan. hadislardan turli xil o‘rinlarda, turli xil ko‘rinishlarda foydalanlan. Ko‘pincha bir masala haqida o‘z fikrini bildirib, uni arab qabilalari orasida ishlatilishiga misollar keltirib, fikrini asoslash va quvvatlash maqsadida arab she‘riyatidan misollar keltiradi va yana dalil o‘laroq Payg‘ambarimizning hadislarini keltiradi. Ba‘zan kitobda bir masalada ikkita hadis keltirilgani guvoh bo‘lamiz. Masalan: Kitobning ismlar bahsi, izofa fasilada quyidagicha keltiriladi:

“Mutakallim “yo”siga izofa qilingan ism kasrali bo‘ladi. Masalan, sahih (tarkibida harfi illat va ikki harf bir jinsdan bo‘lmagan so‘z) va uning hukmidagi ismda سبقوا هَوَيَّ، وَأَعْتَقُوا لِهَوَاهُمْ فتَحَرَّمُوا، وَلَكَلَّ جَنْبِ مَصْرَعٍ deyiladi. Lekin oxiri “alif” yoki oldingi harfi harakatli bo‘lgan yoki “vov” harfi bo‘lgan “yo” bo‘lsa, bundan mustasno. Oxiri “alif” bo‘lgan ism faqatgina Huzayl qabilasi lug‘atida o‘zgaradi. M:

فتَحَرَّمُوا، وَلَكَلَّ جَنْبِ مَصْرَعٍ

سبقوا هَوَيَّ، وَأَعْتَقُوا لِهَوَاهُمْ

Tolha roziyallohu anhuning hadisida:

فَوَضَعُوا اللَّجَّ عَلَى قَفِّي

(Har ikki misolda) “Alif” ni agar u ikkilik alifi bo‘lmasa, “yo” harfiga o‘zgartirib uni mutakallim “yo”siga idg‘om qilganlar.⁹ (Bu yerda Mahmud Zamaxshariy ikki so‘z هَوَيِّ va قَفَيِّ haqida bahs qilyaptilar.)

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shayx Usmonxon Temrxon o‘gli Samarqandiy. Qur’oni karim va o‘zbek tilidagi ma’nolar tarjimasi. – Anqara.: Türkiye Diyanet Vakfi, 2021. – B. 605
2. Kamol Jibriy Abhuriy. Az-Zamaxshariy, siyratuhu-asaruhu-mazhabuhu-n-nahviy. – Ummon.: Dorul janon, 2014. – B. 413.
3. Malika Nosirova. Mahmud Zamaxshariyning “Al-Unmuzaj fi-n-nahv” risolasi. – T.: ToshDShU nashriyoti, 2005. – B. 188.
4. Doktor Fozil Solih as-Samroiyy. Dirosatu-n-nahviyya va-l-lug’aviyya inda-z-Zamaxshariy. – Bag’dod.: Al-Irshod nashriyoti, 1971. – B. 420.

⁹ Doktor Fozil Solih Samroiyy. Dirosatu-n-nahviyya va-l-lug’aviyya inda-z-Zamaxshariy. – Bag’dod.: Al-Irshod nashriyoti, 1971. – B. 112-113.